

XIVA XONLIGINING ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN BOSIB
OLINISHINING XIX-ASR IKKINCHI YARMI XX-ASR BOSHALARIDA G'ARB
TARIXSHUNOSLIGIDA YORITILISHI

Usmona Fe'ruba Ma'quljon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq sivilizatsiyasi va tarixi fakulteti I-kurs magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida G'arb olimlari - Henry Landsell, Varren Uolsh, Fransis Genri Skrayn va Yanuariy Aloiziy Mak-Gaxan tadqiqotlarida Xiva xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishining yoritilishi masalalari bo'yicha dastlabki mulohazalar taqdim qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Xiva xonligi, xorijda o'rganilish, Rossiya imperiyasi, Henry Landsell, Varren Uolsh, Fransis Henry Skrine, Yanuariy Aloiziy Mak-Gaxan, istilochilik harakatlari.*

Key words: *Khiva Khanate, studying in abroad, Russian Empire, occupation, military journalist.*

Ключевые слова: *Хивинское ханство, изучение Зарубежом, Российская империя, захватнические вторжения.*

KIRISH

G'arb tarixshunosligida Xiva xonligining Rossiya tomonidan bosib olinishi masalasi atroficha yoritilgan bo'lib, ularda ham zaif, ham kuchli jihatlarga ega. xorijliklarning deyarli barchasi Rossiya Markaziy Osiyoni, xususan, Xiva xonligini qurol kuchi bilan zabit etganligini ta'kidlab, zabit etish va uning oqibatlari masalasida turlicha mulohaza yuritadilar.

G'arb tarixshunosligida Buxoro amirligidan farqli o'laroq, Xiva xonligi masalalariga nisbatan kamroq e'tibor berilgan, buni xonlik tarixiga oid adabiyotlarning kamligi bilan izohlasak bo'ladi. Ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida nafaqat Xiva xonligiga balki boshqa ikkita xonlikning Rossiya tomonidan bosib olinishi unchalik ham chuqur o'rganilmagan. Maqolada Xiva xonligining Rossiya tomonidan bosib olinishi masalalari bilan shug'ullangan bir necha tadqiqotchilarning amalga oshirgan ishlari yuzasidan ma'lumotlar taqdim qilinadi.

Dastlab tadqiqot olib borgan shaxslardan biri bu Genri Lansel (Henry Landsell) bo'lib "Russian Central Asia" deb nomlangan asarida Rossiyaning Markaziy Osiyoda amalga oshirgan bosqini va bosib olganidan so'ng bu yerda olib borilgan siyosati to'g'risida ma'lumot beriladi. Henry Landsell 1841 yil 10-yanvarda Angliyaning Tenterden shahrida tug'ilgan bo'lib Britaniya cherkovida ruhoniy bo'lib ishlagan, shuningdek, tadqiqotchi va bir necha asarlar muallifi ham hisoblanadi. U Yevropaga qilgan sayohatidan so'ng Osiyoning uncha mashhur bo'limgan hududlariga ham sayohatga chiqqan. Bu sayohat 1882 yilning yozidan to qishigacha davom etgan. U o'z kitobining 51 bobini "The Russian occupation of Turkistan" deb nomlab, unda xonliklarning bosib olinishi jarayonlarini ketma-ketlikda tasvirlab beradi, shuningdek, xonliklarning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishining sabablari to'grisida ham to'xtalib o'tadi. Masalan, tadqiqotchi Xiva xonligining bosib olinishi sabablari va jarayonlarini quyidagicha tasvirlaydi: "Xiva bosqinining sabablari bu: xivaliklarning qaroqchilik qilishlari, Rossiya qirg'izlaridan soliqlarni yig'ib olishi,

qozoqlarni qo'zg'olon qilishga undashi va shuningdek, bir necha yillardan beri rus asirlarining Xiva xonligi zindonlarida saqlanib kelayotganligi”, deb ko'rsatadi . Bundan tashqari asarda General Kaufman xonga maktub yozib, unga ishonib topshirilgan vakolatli hokimiyat haqida va karvonlarni talon-taroj qilgan talonchilarini jazolash uchun Sirdaryoning narigi tomoniga rus otryadini yuborilganligi haqida xabar berdi. Lekin Kaufmanning maktubi Buxoroning kuchsizlanganligi va hududning atrofi sahro bilan qoplanganligi Xiva xonligi himoyasining kafolati deb bilgan xonlik tomonidan e'tiborsizlik va mensimaslik bilan qabul qilinib javob qaytarishni ham ortga surdi va bu jarayon davom etganligi sababli general Kaufman markazga Xivaga yurish qilish maqsadida ruxsat olish uchun xat yozib, markazdan ruxsat olgach 3 ta yo'naliш bo'ylab yo'lga chiqqanligi va Xivani bo'ysundirib 1873 yilda xonlik bilan Gandimiyon shartnomasini tuzganligi, shuningdek, shartnomaning shartlari haqida aytib o'tgan.

Xorijlik tadqiqotchi Varren Uolsh (Warren Wolsh) O'rta Osiyoga ekspansiya” nomli asarida “shu vaqtgacha Rossiya O'rta Osiyoga asta-sekin va izchil ravishda ekspansiya uyuştirib kelayotgan edi... Rossiyaning quruqlikdagi ekspansiyasi birinchidan iqtisodiy, ikkinchidan mudofaa va strategik, uchinchidan an'anaviy zo'rlik va shu kabilar edi. Bu yerda bir qancha g'oya – “madaniylashtirish missiyasi” – madaniyatli fransuz missiyasi va ingliz “oq odam” mavzusiga ekvivalent hamda diniy, ya'ni bo'z e'tiqodiga bo'ysundirish bo'lgan edi. U yerda ruslarning inglizlar, fransuzlar, italyanlar, nemislar va amerikaliklar singari oltin yoki shon-shuhrat qidirishlari emas, balki oddiy ekspansiyasi bo'lgan edi. Bu nuqtai –nazardan ruslarning harakati insofsizlik ham emas, g'arbning dengiz orti imperializmi uchun maxfiy ham emas edi ... Qo'shma Shtatlarning Texas yoki Kaliforniyaga, inglizlarning Hindistonga yoki fransuzlarning Marokashga, nemislarning Sharqiy Afrikaga nisbatan huquqlari bo'lganidek, ruslarning ham Turkistonga nisbatan ozmi – ko'pmi huquqlari bor edi , - deb ta'kidlaydi. Bundan ko'rinadiki, Uolsh Varren Rossiyaning Markaziy Osiyo xonliklarini, shu jumladan Xiva xonligini istilo etishi tabiiy holatligini ko'rsatishga urinib, uning istilosini oqlaydi.

Keyingi Angliyalik tadqiqotchilar Fransis Genri Skrayn(Francis Henry Skrine) “INDIAN CIVIL SERVICE” uyushmasining sobiq a'zosi, va Edward Denison Ross Londondagi Persian universitetining professori bo'lib, bu ikki tadqiqotchilarning “THE HEART OF ASIA” A HISTORY of RUSSIAN TURKISTAN AND THE CENTRAL ASIAN KHANATES FROM THE EARLIEST TIMES kitobi 1899-yil Londonda METHUEN &CO.36 ESSEX STREET da chop etilgan . Bu kitob xonliklar to'g'risida juda ko'p ma'lumotlarni qamrab olishiga qaramay, negadir xonliklarning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishini unchalik ham batafsil yoritilmagan. Bu yerda asosan 3 ekpeditsiyaning yurish boshlagani va bu ekspeditsiyalarning suvsizlik va ochlikdan azoblangani holda zo'rg'a Xivaga yetib kelganligi, Xiva qo'shinlarining rus bosqinchilariga qarshi jang qilish uchun harbiy jihatdan kuchsizligi sababli yengilanligi va shahar kuch bilan bosib olinib, 1873-yil 24- martda sulh tuzilib xonning 2,500,000 rubl tovon puli to'lash, rus hamda forslik asirlarni ozod qilish va rus imperatoriga vassallikni qabul qilish shartlari bilan tinchlik sulhi o'rnatilganligi to'g'risida ma'lumot beradi. Bu tadqiqotchilar bu asarida Markaziy Osiyoning qadimiy davridan to podsho Rossiyasining Markaziy Osiyoni bosib olib u yerda yuritgan siyosati to'g'risida hikoya qiladi.

Rossiyaning Xiva xonligiga bostirib kirishi masalasini XIX asr oxirida yoritgan tarixchilar orasida, amerikalik jurnalist Artur Yanuarius Mak-Gaxan alohida ajralib turadi, chunki u XIX asr

oxirida bu muammoni o'rgangan boshqa taddiqotchilardan ko'ra ko'proq va batafsil yoritgan tadqiqotchi sanaladi. Artur Yanuarius Mak-Gaxan Rossianing Xiva xonligiga harbiy yurishida qatnashish uchun rus armiyasi tarkibida bo'lган va Xiva safarida ko'rgan-kechirganlarini kundaligiga batafsil ravishda tushirib, shu asosda "THE FALL OF KHIVA" asarini nashr qildirgan. Bu asar ko'p marotaba ingliz tilida nashr etilgan. 1876-yilda asar Londonda to'rtinchi marotaba ko'plab rasmlar va xaritalar bilan nashrdan chiqqan.

Xiva xonligining bosib olinishini ancha to'liq tarzda yoritgan Yanuariy Aloiziy Mak-Gaxan (ingl. Januarius Aloysius Mac Gahan) (1844-1878) amerikalik muxbir bo'lib, bevosita dunyoning turli burchaklarida bo'layotgan urush harakatlarini yoritishga ixtisoslashgan jurnalist sifatida mashhur bo'lган. Mak-Gaxan 1844-yil 12-iyunda Amerika Qo'shma Shtatlarining Ogayo shtatidagi Nyuleksington shahrida tug'ilgan. Yanuariyning otasi u 7 yoshga to'lganida vafot etdi. U oilasiga yordam berish uchun qo'shni fermalarda ishlay boshladи. 17 yoshida u Indiana shtatining Xantington shahriga ko'chib o'tdi va u yerda sotuvchi va o'qituvchi bo'lib ishlaydi. 1864 yil boshida Mak-Gaxan Sent-Luisga ko'chib o'tdi va u yerda bir muddat "Union Pacific" temiryo'l kompaniyasida hisobchi bo'lib ishlaydi. Sent-Luisda u fuqarolar urushi qahramoni, kelib chiqishi irlandiyalik general Filipp Sheridan bilan uchrashadi. Yigitning keyingi faoliyatiga foydali ta'sir ko'rsatgan general Sheridan uni huquqshunoslik bo'yicha Yevropaga borishga ishontiradi. 1868 yil dekabrda Mak-Gaxan Bryusselga jo'nab ketdi. Mak-Gaxan advokat bo'lishni uddalay olmaydi, lekin u qisqa vaqt ichida nemis va fransuz tillarini o'zlashtirgan holda chet tillarini o'rganish qobiliyatini kashf etadi. 1870-yilda Fransiya-Prussiya urushi boshlanadi va general Sheridan Mak-Gaxanga "New York Herald" gazetasining London ofisida urush muxbiri sifatida ishga joylashishiga yordam berdi. 1871 yilda Yanuariy Mak-Gaxan Sankt-Peterburgdagi "New York Herald" muxbiriga aylandi. U tezda rus tilini o'zlashtirdi, rus zodagonlari bilan tanishdi. 1873 yilda u eski zodagon oilasidan chiqqan bo'lajak rafiqasi Varvara Nikolaevna Yelagina bilan uchrashadi. Mak-Gaxan Rossiya armiyasining Xiva xonligiga istilo yurishini bilib, ta'qiqqa qaramay, Qizilqumni otda kesib o'tadi va 1873-yilda Xiva shahrining taslim bo'lganiga guvoh bo'ladi. Bu yerda u polkovnik Mixail Skobelev bilan uchrashadi, ularning do'stligi umrinning oxirigacha davom etadi. Xiva xonligidagi ko'rgan kechirganlarini o'zining "Oksusdagi harbiy harakatlar va Xivaning qulashi" asarida batafsil yoritadi. Bu asar 1874-yilda Londonda, 1875-yilda esa Moskvada chop etiladi.

General K.P.fon Kaufman boshchiligidagi rus armiyasi Xivaga yetib kelishidan oldin, shahar Orenburg yo'nalishi orqali yurish qilgan polkovnik N.A.Veryovkin boshchiligidagi qo'shinlar tomonidan egallangan edi. Aynan shu vaqtida Mak-Gaxan ham Xivaga yetib keladi va dastlabki ishi shaharni tomosha qilish bo'ladi. Chunki uni ushbu shaharning mahobati, go'zalligi va arxitekturasi hayratga solgan edi. Xivani istilo qilishda qatnashgan Rossiya qo'shnlari Bosh qo'mondoni general fon Kaufman qarorgohi Xiva xoni Muhammad Rahimxonning inisi Otajon to'raga tegishli bo'lgan Gandimiyon qishlog'idagi dala hovlisida joylashgan edi. Mak-Gaxan ham 3 oy davomida shu yerda istiqomat qiladi. U rus armiyasi polkovnigi M.D.Skobelev bilan do'stlashgan va undan voha hayotiga oid hujjatlarni o'rgangan.

A.Ya.Mak-Gaxanning guvohlik berishicha, xonlikda xonning amakisi Sayid Amir ul-umaro rossiyaparvarlik vazifasini bajargan, ya'ni u Rossiya bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatida bo'lish tarafdori edi. Rus armiyasining Xiva xonligiga hujumi arafasida Matniyoz devonbegi ham ushbu

fikrni qo'llab-quvvatlagan. Biroq xonlikda mehtarlik vazifasini bajarib turgan Matmurod devonbegi bu fikrga butunlay qarshi bo'lgan. Amaldorlar o'rta sidagi ichki kurashning mavjudligi, yagona fikrning yo'qligi, himoyani to'g'ri tashkil qilish ishlariga yo'l bermagan, natijada 1873-yil 23-mayda rus armiyasining ilg'or otryadi birorta o'q otmay Hazorasp qal'asini egallagan. Holbuki, bu qal'a himoyasi xonning amakisi Sayid Amir ul-umaroga topshirilgan edi. U esa Hazoraspni tashlab Xivaga ketib qolgan A.Ya.Mak-Gaxan o'z kitobida general-gubernator K.P. Kaufmanning Xiva xoni Muhammad Rahimxon II ga yozgan xatining matnini to'liq berib o'tgan. Unga ko'ra, K.P.Kaufman xonni o'ldirmasligini, Sibirga ham surgun qilmasligini, balki uni ma'lum shartlar bilan xonlik taxtiga qayta o'tkazishi bilan bog'liq shartlarni qayd qilib o'tgan. Muallif asarida xonning Murod to'ra, Matmurod devonbegi va boshqa yaqinlari bilan K.P.fon Kaufman huzuriga kelishi batafsil bayon etilgan Mak-Gaxan asarining 2-qismi 13-bobi: "Xon bilan suhbat (Kaufman va xon)" deb nomlangan. Mak-Gaxan kitobida bevosita Xiva xoni va Kaufman o'rta sidagi birinchi uchrashuvlari qiziqarli bayon qilingan va ular o'rta sidagi suhbatning guvohi sifatida quyidagilarni yozib qoldirgan: " 14-iyun kuni xon o'z izdoshlari bilan Xivaga qaytib keldi va fath qiluvchining huzuriga olib kelindi. Kaufman uni chodir oldida qarag'ay ostida qabul qildi. Bu yerda g'ishtdan yasalgan baland platforma bor edi, uning ustiga gilamlar yotqizilgan, stol va stullar o'rnatilgan. Bu platformada Kaufman va xon o'rta sidagi birinchi suhbat bo'lib o'tdi. ... xon kamtarlik bilan yigirma nafarga yaqin izdoshlari bilan o'z bog'iga kirdi va general Kaufmanning chodiriga olib boradigan yosh teraklarning qisqa ko'chasi oxirigacha yetib kelganida, u o'zining katta otidan tushdi va qayinni oldiga qo'yib, baland bo'yli qo'yli shlyapasini yechdi va yaqinlashganda ta'zim qildi..." . Shu bilan general Kaufman va Xiva xoni Muhammad Rahimxon II o'rta sidida muzokalarlar boshlanib ketadi.

Mak-Gaxan Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, Xiva xonligi hududlariga kelgan birinchi amerikalik jurnalistikdir, shu sababli ulning esdaliklari orqali Rossiya imperiyasining Xivani istilo qilish jarayoni, xon saroyidagi o'sha davrdagi ko'rgan-kechirgan voqealarini, xonlik aholisi ijtimoiy hayotini, mustamlakachi rus imperiyasi va xon hukumati o'rta sidagi o'zaro munosabatlarni bilib olishimiz mumkin. Mak-Gaxan orqali xorijliklarning Xiva xonligi bosib olinishi jarayoni haqidagi ilk tadqiqotlarini bilib olamiz va shu bilan birga Xiva xonligini Rossiya tomonidan istilo etilishini yoritgan bir necha tadqiqotchilar Makghanning ushbu kitobidan asosiy adabiyot sifatida foydalanganligini ko'rish mumkin. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Rossiyaning Xiva xonligiga hujum qilishiga aniq ishonch hosil qilgach, harbiy diplomatik yo'l bilan Angliyadan va Afg'onistonidan yordam so'ramoqchi bo'lib, 18 kishidan iborat elchi yuborgan. Elchilarni Qobul shahrida Afg'oniston amiri Sherali kutib olgan va har tomonlama yordam berishga va'da bergen. Xiva elchilari delegatsiyasi Peshovorga – Angliyaning vitse-qiroli Nortbruk huzuriga borganlar. Ammo, u Xiva xoni elchilari bilan mustaqil muzokara olib borolmagani tufayli Londonga xat yuborilgan, uning javobi esa 25 kunda yetib kelgan. Xatda Angliya Rossiyaning Xiva xonligini bosib olishiga qarshi ekanligini, buning uchun musulmon davlatlari ittifoqini tuzib kurash olib borish lozimligi, hamda rus asirlarini o'z vataniga qaytarib yuborishi, Rossiyaning hujum qilish bahonasini keyinga suradi, deb ta'kidlangan.

XULOSA

Xiva xonligining Rossiya tomonidan bosin olinishi borasida XIX asr oxiri va XX asrning 50-yillarigacha yetarlicha, aniq tadqiqotlar qilinmagan, tadqiqot qilganlar ham, bu masalani yuzaki yoritib ketishib, Asosan, Markaziy Osiyoning aholisi va madaniyati, shaharsozligi, shu yerda istiqomat

qilayotgan aholining so'zlashuv tili to'g'risida ko'proq tadqiqotlar qilishgan. Bu yerda faqatgina Januariy Macghan (amerikalik urush jarayonlarini yoritib boruvchi jurnalist sifatida mashhur bo'lgan) Xivaning bosib olinishi jarayonlariga o'zi guvoh bo'lib bu to'g'risida "The Fall of Khiva" degan nom ostida 1875 yil Londonda nashr etilgan kitobida voqealarini to'liq yoritib bergen.